

## “MAQOMOTI ZAMAXSHARIY” ASARINING YOZILISH USLUBLARI VA ASARDA ISHLATILGAN ISTIORA, MAJOZ VA TASHBEHLAR

*Sharipov Nuriddin Alijon o'g'li*

*Tel: +998974003073, E-mail: nuriddinsharipov1212@gmail.com*

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti*

*2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ustodul arab val ajam, Faxru Xvarezm bo'lgan Mahmud Zamaxshariy o'zining “Maqomoti Zamaxshariy” asarida saj', majos, tashbeh, jinos, tiboq, muqobala kabi adabiy san'atlarni qay darajada mohirlik bilan ishlatgani va asar yozilishidagi uslublar haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Zamaxshariy, “Maqomot Zamaxshariy”, “Atvoq az-zahab”, maqoma, saj', majoz, tashbeh, tiboq, muqobala, istiorai makniyya, istiorai tahliliyya, iqtibos, jinos

Imom Zamaxshariy maqoma janrida ikkita asar yozgan. Birinchisi, “Atvoq az-zahab” asari. Bu asar maqolalardan iborat bo'lib, har bir mavzu maqola deb boshlanadi va shu maqolalar adadi yuztadan iborat. Ikkinchi, asari esa “Maqomoti Zamaxshariy” bo'lib, mavzular maqoma deb boshlanadi va shu maqomalar soni elliktadan iborat. Imom Zamaxshariy “Maqomoti Zamaxshariy” asarida har bir maqomani “Ey Abul Qosim” deb boshlaydi, faqatgina “Maqomoti taslim” maqomasi bundan mustasno. Bu esa bu asar Zamaxshariyning asari ekaniga dalolat qiladi. Imom Zamaxshariyning maqomalari soni ellikta ekanligi, ba'zi bir jihatlari Hamazoniy va Haririyning maqomalariga o'xshashligi Zamaxshariy bularga taqlid qilganini bildiradi. Zamaxshariyning maqomalari nasr yo'lga ko'ra yozilgan, matnlari qisqa, lo'nda lekin pur ma'no. Zamaxshariy asarining Xutbatul kitob bo'limida, maqomalarni yozishdan maqsad nafsini to'g'ri yo'lga boshlash va tavba qilish ekanligini aytadi. U bu maqomalarni o'qigan kishidan maqomalarda qo'llangan adabiy san'atlarni tushunishi, aytilgan nasihatlariga amal qilishini istaydi. U xutbatul kitob bo'limida, bir payt erta tongda uxlagan vaqtida qulog'iga kimdir: “Ey Abul Qosim ajal yaqindir, orzu-umidlar esa aldamchidir” – deganini eshitadi. Olimlar Imom Zamaxshariy ey Abul Qosim deb bu kunyani ishlatishidan birinchi sabab tushida unga “Ey Abul Qosim deb xitob qilingani deyishadi. Yana bir sababi qilmagan ishlarini boshqalarga tavsiya qilayotgan vaqtida andisha qilib, man shu kunyani ishlatib o'ziga o'zi xitob qilgan deyiladi.

Zamaxshariy Maqomot asarini 512-yilda betob bo'lib, tuzalganidan keyin yozishni boshlaydi. Zamaxshariy 467-yilda tug'ilgan bo'lsa, demak asarini yozishni boshlaganda 45 yoshlarda ekanligi ma'lum bo'ladi. Bundan tashqari Zamaxshariy asarining “Maqomotul-inoba” mavzusida shunday deydi:

## فَقَدْ بَلَغْتَ الْأَشَدَّ وَ خَلَقْتَ ثَنِيَّةَ الْأَرْبَعِينَ

“Shubhasiz san katta yoshga yetting, qirq olti(yoki qirq uch) yoshni ortda qoldirding” – deydi. Arab tilida الْأَشَدَّ kalimasi 30 yoki 40 yoshdagi odamni ta’riflaydi. ثَنِيَّة kalimasi esa kichkina hayvonlar uchun 3 yoshni, katta hayvonlar uchun 6 yoshni belgilaydi. Shulardan kelib chiqib, Zamaxshariy o’sha vaqtda 43 yoki 46 yoshlarda bo’lganligi bilinadi. Ulamolar Zamaxshariy Maqomot asarini yozganda 45 yoshda bo’lgan, o’sha vaqtda u Makkada edi – deydilar. U yerda kasal bo’lgan va tuzalgan – deydilar. Zamaxshariy Makkada “al-Kasshof”, “Maqomoti Zamaxshariy”, “Atvoq az-zahab”, “Navabig’ul kalim”, “Anvar ar-robi” nomli asarlarini yozgan. Zamaxshariy Maqomot asarini muqaddimasida shunday deydi:

وَ يَكْتُبُكَ بِبَرَكَهٍ هَذَا الْبَيْتِ الْعَتِيقِ فِي زُمْرَةِ الْعُقَّاءِ مِنَ النَّارِ<sup>1</sup>

“Alloh taolo bu eski baytning barakatidan seni do’zaxdan ozod bo’lganlar ichida qilsin”. Bu jumlada Zamaxshariy هَذَا kalimasini ishlatgan. Bu esa, Zamaxshariy bu kitobini Makkada bo’lgan vaqtda yozganini bildiradi.

Zamaxshariy Maqomot asarini yozishda ba’zi shoirlarning she’rlaridan, she’rlarining ma’nolaridan, so’zlaridan va arab maqollaridan undan tashqari Zamaxshariy o’zining she’rlaridan foydalangan. Yana Qur’oni karim oyatlaridan, hadislardan, sahobalarning so’zlaridan iqtiboslar olingan. Qur’oni karim va hadislardan iqtibos olingan yoki ulardan ilhomlanib jumlar qurilgan. Ba’zi o’rinlarda arablarning eski hayotidan, ularning yerlari haqida ularning balog’atda mohirlari va boshqalari haqida iqtiboslar keltirilgan. Iqtiboslar ba’zi so’zlar yoki jumalarning ba’zi qismlari bo’lgan. Ba’zi qismlar ham yoki o’zgartirilgan yoki o’zidan qilib o’zgartirib yozilgan.

Iqtiboslarning ba’zi turlarini quyida keltirish mumkin:

1. Bir so’zni boshqa joyda qanday ishlatilgan bo’lsa, shundayligicha olib ishlatish.

Misol uchun:

فَلَا تَفْضَحْنِي بَيْنَ خَلْقِكَ يَوْمَ تُبْلَى السَّرَائِرِ<sup>2</sup>

Ma’nosi: Hamma sirlar o’rtaga chiqariladigan kunda mani sharmanda qilmagin. Bu jumladagi يَوْمَ تُبْلَى السَّرَائِرِ kalimalari Qur’oni karimda qanday kelgan bo’lsa shundayligicha ishlatilgan. Boshqa bir yerda Zamaxshariy bunday deydi:

يَا أَبَا الْقَاسِمِ الْعُمَرُ قَصِيرٌ وَ إِلَى اللَّهِ الْمَصِيرُ فَمَا هَذَا التَّقْصِيرُ<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy. “Maqomot az-Zamaxshariy”. Dor al-kutub al-Misriyya. 1076 h. – B. 4.

<sup>2</sup> Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy. “Maqomot az-Zamaxshariy”. Dor al-kutub al-Misriyya. 1076 h. – B. 8.

<sup>3</sup> O’sha asar. – B. 43.

Ma'nosi: Ey Abul Qosim Umr qisqa, qaytish Allohga, nima uchun nuqsonga yo'l qo'lasan. Bu jumladagi **وَإِلَى اللَّهِ الْمَصِيرُ** ifodasi ham Qur'oni karimda qanday bo'lsa shundayligicha olib ishlatilgan.

2. Bir so'zni o'zgartirib ishlatish.

Misol uchun:

أَنْتَ بَيْنَ أَمْرَيْنِ لَذَّةَ سَاعَةٍ بَعْدَهَا قَرْعُ السِّنِّ وَالسَّقُوطُ فِي الْيَدِ<sup>4</sup>

Ma'nosi: Sen undan keyin pushaymonlik bor bo'lgan va qo'lga tushishlik bor bo'lgan bir onlik lazzatni o'rtasidasan. Bu jumlada **قَرْعُ السِّنِّ** va **السَّقُوطُ فِي الْيَدِ** kalimalari ishlatilgan. **قَرْعُ السِّنِّ** kalimasi arablarning **قرع فلان سنه ندما** (bir kishi tishini nadomatdan sindirdi) degan iboradan o'zgartirib olingan. Ya'ni fe'lni masdar qilib olingan. **السَّقُوطُ فِي الْيَدِ** kalimasi ham **سقط في يده** (pushaymon bo'ldi) degan iboradan o'zgartirib olingan. Qur'oni karimda ham **(وَلَمَّا سَقَطَ فِي أَيْدِيهِمْ)** deb kelgan. Ya'ni Qur'oni karimda: **“Qo'llaridan (tarvuzlari) tushib (pushaymon bo'lib), o'zlarining adashganliklarini ko'rganlarida, aytdilar: “Qasamki, agar Rabbimiz bizga rahm qilmasa va (gnohimizni) kechirmasa, albatta, ziyon ko'ruvchilardan bo'lishimiz aniqdir”<sup>5</sup> – deyiladi.**

Zamaxshariy yana bunday deydilar:

لَوْ لَا اسْتِجَابُهَا أَنْ تَكُونَ مَرْفُوضَةً لَوَزَنْتَ عِنْدَ اللَّهِ جَنَاحَ بَعْضَةٍ<sup>6</sup>

Manosi: Agar dunyoni tark etish qoida bo'lmaganda, Allohni nazdida dunyoni pashsha qadar qadri bo'lar edi. Bu jumladagi **جَنَاحَ بَعْضَةٍ** kalimasi hadisdan olingan. Hadisda quyidagicha keladi:

لَوْ كَانَتِ الدُّنْيَا تَعْدِلُ عِنْدَ اللَّهِ بَعْضَةً ...

Ma'nosi: Agar dunyoni qadri pashsha qadricha bo'lsa edi ....

Yana bir maqomada shunday keladi:

لَا تَنِي أَيَّامُهَا وَ لَيَالُهَا يَنْحِتَنَّ مِنْ أَفْطَارِكَ

Ma'nosi: Kunlar to'xtamasdan o'tyapti va kechalar seni kuchini olyapti.

<sup>4</sup> O'sha asar. – B. 23.

<sup>5</sup> Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri – T.: Toshkent islom universiteti, 2004. – B. 168.

<sup>6</sup> Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy. “Maqomot az-Zamaxshariy”. Dor al-kutub al-Misriyya. 1076 h. – B. 33.



Bu jumlada **يُنْحِتْنَ مِنْ أَفْطَارِكَ** iborasi ishlatilgan. Bu ibora Al-Ajjajning she'ridan olingan.

Zamaxshariyning maqomotlari ta'sirli bo'lishida uning ishlatgan adabiy san'atlarining o'rni katta. Zamaxshariy "Maqomot" asarida saj', tiboq, muqobala, jinos, tashbeh, majoz kabi san'atlarni ishlatgan.

Zamaxshariyning asarida adabiy san'atlar ko'p ishlatilgan, bu esa asarning balog'ati yuksak ekanligiga dalolat qiladi va asarni qo'lga olgan kishidan adabiy san'atlarni his qilgan holda asarni tushunishini talab qiladi. Biz quyida asosiy va ko'p ishlatilgan san'atlarning ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

1. Saj' san'ati. Saj' – shoirona, qofiyali gapirish ma'nosida bo'lib, jumla bo'laklarining oxirini bitta harfga moslab keltirishdir. Bo'laklar qarina deyiladi, chunki bir bo'lakni boshqasiga yaqinlashtiradi. Uni misra yoki xatboshi ma'nosida, "farqa" ham deyiladi. Saj'ning uch turi bo'ladi:

- a. Mutarraf (oxiriga qo'yilgan) – so'zlarning oxirgi harflari bir xil bo'lishi.
- b. Murassa' (o'rnatilgan, bezatilgan) – yonma-yon kelgan so'zlarning qolipi bir-biriga tushishi.
- c. Mutavoziy (mos, parallel qilingan) – so'zlarning oxirgi harflari ham, qoliplari ham bir-biriga tushishi.<sup>7</sup>

Zamaxshariyning asarda saj' san'atini ishlatishdan maqsadi maqomotlarning eshituvchiga yoqishi va unga tezroq, kuchliroq ta'sir qilishi bo'lgan. Zamaxshariy asarida shunday jumlaning keltiradi:

يَا أَبَا الْقَاسِمِ أَفْلَاكٌ مُسَخَّرَةٌ وَكَوَاكِبٌ مُسَيَّرَةٌ تَطْلُعُ حِينًا وَحِينًا تَغْرُبُ يَنَاءَ بَعْضُهَا عَن بَعْضٍ وَ يَقْرُبُ وَ قَمَرٌ فِي مَنَازِلِهِ يَعْوُمُ وَ شَمْسٌ فِي دَوْرَانِهَا تَدُومُ فَمَا تَقُومُ<sup>8</sup>

Ma'nosi: Ey Abul Qosim osmonlar bo'ysundirib qo'yilgan, yulduzlar o'z yo'lida yuradigan qilib qo'yilgan. Ular ba'zan chiqadi ba'zan botadi. Ularning ba'zisi ba'zidan uzoqlashib, yaqinlashib turadi. Quyosh ham, oy ham o'z yo'lida davom etadi, sen nega bir joyda turibsan (yaxshi ishlar qilishga g'ayrat qilmayapsan)?

Bu jummalarda saj' san'ati ishlatilgan. **أَفْلَاكٌ مُسَخَّرَةٌ وَكَوَاكِبٌ مُسَيَّرَةٌ** bu ifodada saj' mutavozev ishlatilgan, chunki **مُسَيَّرَةٌ** va **مُسَخَّرَةٌ** kalimalarining ham oxirgi harflari bir xil, ham vaznlari bir xil.

**وَ قَمَرٌ فِي مَنَازِلِهِ يَعْوُمُ وَ شَمْسٌ فِي دَوْرَانِهَا تَدُومُ فَمَا تَقُومُ** bu ifodada esa saj' murassa' ishlatilgan, sababi bu ifodada yonma-yon kelgan ikki jumla so'zlari bir-biri bilan vazndosh.

Yana bir joyda Zamaxshariy bunday deydi:

**لِلْخَوْفِ وَ الرَّجَاءِ فِي قَلْبِهِ مُضْطَرِبٌ يَتَعَاقَبُ عَلَيْهِ الْحَرْبُ وَ الطَّرْبُ**

<sup>7</sup> Zokirjon Sharipov. Balog'at fani: Bayon va Bade' ilmlari – Toshkent: "Movarounnahr", 2014. – B. 284.

<sup>8</sup> Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy. "Maqomot az-Zamaxshariy". Dor al-kutub al-Misriyya. 1076 h. – B. 128.

Ma'nosi: Xavf va rajo sababli uning qalbida hayajonlanish bor. Shuning uchun mahzunlik va jo'shqinlik unga ketma-ket kelib turadi.

Bu joyda الطَّرْبُ va الحَرْبُ kalimalarining oxirgi harflari bir xil bo'lgani sababidan saj' mutarraf bo'lyapti.

2. Zamaxshariyning maqomalarida tiboq va muqobala san'atlari ham juda keng qo'llanilgan. Tiboq bu balog'at ilmida ma'naviy tahsinning turlaridan biri hisoblanadi. Tiboq – bir kalomda ikki bir-biriga qarama-qarshi ma'nolarni jamlashdir. U bir so'z turkumidan yoki turli so'z turkumlariga oid lafzlardan tuzilishi mumkin. Muqobala ham balog'at ilmida ma'naviy tahsinning turlaridan hisoblanadi. Muqobala – avval ikki va undan ko'p bir-biriga teskari bo'lgan ma'nolarni keltirib, keyin har bir ma'noga mos ravishda, tartib bilan uning teskarisini zikr qilishdir. Muqobala ikkitadan to'ltitgacha ma'nolar o'rtasida bo'lishi mumkin. Mutobaqadan farqi ham shunda, mutobaqa bir kalomda bir ma'noga ziddini keltirish bilan kifoyalini. Muqobalada esa bir kalomda bir necha bir-biriga qarama-qarshi ma'nolar jamlanadi va shunisi bilan chiroyli gap tuzishga yo'l ko'rsatadi.<sup>9</sup>

Zamaxshariyning maqomalarida bu ikki san'atning yuzlab o'rinlarda ishlatilganiga guvoh bo'lsak bo'ladi. Misol uchun yuqorida keltirgan jumlarimizga qarasak:

يَا أَبَا الْقَاسِمِ أَفْلَاكٌ مُسَخَّرَةٌ وَكَوَاكِبٌ مُسَيَّرَةٌ تَطْلُعُ حِينًا وَحِينًا تَغْرُبُ يَنَاءَ بَعْضُهَا عَنْ بَعْضٍ وَ يَقْرُبُ وَ  
قَمَرٌ فِي مَنَازِلِهِ يَعْوَمُ وَ شَمْسٌ فِي دَوْرَانِهَا تَدُومُ فَمَا تَقُومُ

Bu yerda to'rt o'rinda tiboq san'ati ishlatilgan. Ya'ni تَطْلُعُ va تَغْرُبُ , يَنَاءُ va يَقْرُبُ , قَمَرٌ va شَمْسٌ , تَدُومُ va تَقُومُ degan kalimalarda bir-biriga zidlik bor. Bularning hammasi tiboqqa to'g'ri keladi. Boshqa bir jumlada:

يَا أَبَا الْقَاسِمِ لِلْسَيِّدِ سَيَادَتُهُ وَ عَلَى الْعَبْدِ عِبَادَتُهُ وَ لَكَ سَيِّدٌ مَا أَجَلُهُ وَ أَنْتَ عَبْدٌ مَا أَدَلَّهُ<sup>10</sup>

Ma'nosi: Ey Abul Qosim xo'jaga xo'jaligi yarashadi, qulga qulligi yarashadi, sani qanday ham buyuk boshlig'ing(xoliqing) bor va sen qanchalik xor qulsan.

Zamaxshariy bu jumalarda muqobala san'atini ishlatgan.

3. Jinos san'ati. Jinosni mujonasa va tajonus deb ham yuritiladi. Jinos – gap yoki jumladagi so'zlarning jinsdosh bo'lishi, talaffuz va jarangdorlikda bir-biriga yaqin va o'xshash bo'lishidir. Gapning jarangi va yozilishi bir-biriga mos bo'lib kelgandagina u chiroyli tuzilgan bo'ladi. Ma'nosini o'z holicha qo'yilaveradi, lekin uni ifodalab bera oladigan va ziynatlaydigan lafzlar bilan kiyintiriladi. Shunda bunday gaplar inson e'tiborini o'ziga jalb etadi, diqqatini quloqqa aylantiradi, yoqimli bo'ladi. Jinos ham saj'ga o'xshab so'zni lafz jihatidan go'zallashtiradi. Jinos ikki xil bo'ladi: komil(tom) jinos, komil bo'lmagan(g'oyri tom, noqis) jinos.

Komil jinos – ikki lafzning to'rt holatida bir-biriga mos kelishidir. Bular: harflarning turi, soni, ahvoli va tartibidir.

<sup>9</sup> Zokirjon Sharipov. Balog'at fani: Bayon va Bade' ilmlari – Toshkent: "Movarounnahr", 2014. – B. 232.

<sup>10</sup> Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy. "Maqomot az-Zamaxshariy". Dor al-kutub al-Misriyya. 1076 h. – B. 118.

Komil bo'lmagan jinos – komil bo'lmagan jinos ikki bir-biriga o'xshash lafzlarda to'rt holatdan birida o'zgarish bo'lishdir. Bu holatlar so'zning harflari, harflarning soni, hay'ati va tartibidir.<sup>11</sup>

Zamaxshariyning maqomalarida asosan noqis jinoslar ishlatiladi. Quyidagi biz maqomalarda kelgan noqis jinosga misol bo'ladigan kalimalarni zikr qilamiz: **عُيُوفٌ** **عُرُوفٌ** **قُبُورٌ** **فُصُورٌ**, **رُوحٌ** **صُرُوحٌ**, **رَمْسٌ** **أَمْسٌ**, **حَدِيدٌ** **جَدِيدٌ** shu so'zlar noqis jinosga misol bo'ladi.

4. Tashbeh san'ati. Tashbeh – maqsad uchun biron o'xshatish vositasini lafzi bilan keltirgan holda yoki taqdiran qoldirish bilan ma'noda o'zaro sherikligi bo'lgan bir amrni boshqasiga qo'shishdir. Demak bayon ilmi ulamolari nazdida tashbeh qilish, ya'ni o'xshatishni keltirish uchun eng avvalo, o'xshatishdan biron maqsad bo'lishi kerak. O'xshatilayygan lafzlar o'zaro biron ma'nod sherik, ya'ni bir-biriga mos kelishi kerak. Yana bir sharti – lafzi bilan yoki taqdirda keltirilgan o'xshatish lafzining o'rni bo'lishi lozim. Ushbu shartlar chiroyli va mukammal bajarilsa, o'xshatish ham chiroyli va o'rinli chiqadi.<sup>12</sup>

يَا أَبَا الْقَاسِمِ إِنَّ الَّذِي خَلَقَكَ فَسَوَّاكَ رَكَّبَ فِيكَ عَقْلَكَ وَهَوَاكَ وَهَمَّا فِي سَبِيلِ الْخَيْرِ وَالشَّرِّ دَلِيلًا وَفِي مَرَاجِلِ الرَّشْدِ وَالْغَيِّ نَزِيلًا أَحَدُهُمَا بَصِيرٌ عَالِمٌ يَسْئَلُكَ بِكَ فِي الْبُرْدَيْنِ الْمَحَجَّةِ الْبَيْضَاءِ وَيَرِدُ بِكَ زُرْقَ الْمَنَاهِلِ وَالْآخِرُ جَاهِلٌ يَخْبِطُ بِكَ فِي بَيْضَةِ الْهَاجِرَةِ الْبَيْدِ دَاتِ الْمَعَاطِشِ وَالْمَجَاهِلِ فَأَيُّ دَلِيلِكَ أَمْهَرُ بِالذَّلَالَةِ وَأَحْذُقُ<sup>13</sup>

Ma'nosi: Ey Abul Qosim seni yaratib, to'la-to'kis qilgan Zot senda aql bilan nafsni ham yaratdi. Aql bilan nafs yaxshilik va yomonlik xususida seni yo'l boshching bo'lishadi, to'g'rilik va buzg'unchilikda do'sting bo'ladi. O'sha hidoyatchilardan biri. Ertalab va kechqurun issiq bo'lmagan vaqtda seni to'g'ri yo'lda sayohatga olib chiqadi. Seni tashqariga olib chiqadigan, seni suv buloqlariga olib boradigan, biladigan va ko'radigan. Ikkinchisi esa tasodifiy sudrab yuruvchidir. Issig'i shiddatli bir paytda chanqagan va noma'lum cho'llardan o'tasiz. Bu ikki yo'l boshchingdan qaysi biri mohirroq va yo'l ko'rsatishda ustaroq.

**سَبِيلِ الْخَيْرِ وَالشَّرِّ** bu jumalalarda istiorai makniyya va istiorai taxliliyya ishlatilyapti. Chunki bu yerda mushabbih bih aytilmasdan uning o'rniga **الْخَيْرِ** va **الشَّرِّ** so'zlari ishlatilyapti. Bu so'zlarga **سَبِيلِ** so'zining izofa qilinishi istiorai taxliliyya deyiladi.

Istiora makniyya – Bayon ilmi ulamolari nazdida istiorai makniyya deb, mushabbah bihni mushabbahga mustaor qilingan lafziga tegishli bo'lgan bo'lagini ko'chma ma'noda ishlatishdir. Uning madluli, ya'ni mustaor lafz hazf qilingan bo'lib, uning o'rniga lozim etilgan lafz keltiriladi.<sup>14</sup>

<sup>11</sup> Zokirjon Sharipov. Balog'at fani: Bayon va Bade' ilmlari – Toshkent: “Movarounnahr”, 2014. – B. 273.

<sup>12</sup> O'sha asar. – B. 62.

<sup>13</sup> Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy. “Maqomot az-Zamaxshariy”. Dor al-kutub al-Misriyya. 1076 h. – B. 194.

<sup>14</sup> Zokirjon Sharipov. Balog'at fani: Bayon va Bade' ilmlari – Toshkent: “Movarounnahr”, 2014. – B. 179.



Istiorai taxliliyya – Mustaoz lafz hazf qilingandan keyin, uni o'rniga lozim etilgan lozimiyni keltirib, uni mushabbah bilan ishlatilganda eshituvchi mushabbahni mushabbah bihning bir qismi deb xayol qiladi. Shunda istiorai taxliliyya bo'ladi.<sup>15</sup>

فِي مَرَاكِحِ الرُّشْدِ وَالْغَيِّ bu jummalarda ham istiorai makniyya va taxliliyya bor.

وَالْآخِرُ جَاهِلٌ va أَحَدُهُمَا بَصِيرٌ عَالِمٌ bu ifodalar bilan boshlangan jummalarda tashbehi tamsil bor. Bu yerda أَحَدُهُمَا va الْآخِرُ kalimalari mushabbahlar, عَالِمٌ va جَاهِلٌ mushabbah bihlar bo'lyapti.

الْمَحَجَّةُ الْبَيْضَاءُ va الْبُرْدَيْنِ، بَيْضَةُ الْهَاجِرَةِ الْبَيْدِ va زُرْقُ الْمَنَاهِلِ، الْمَجَاهِلِ va الْمَعَاطِشِ bu kalimalarda istiorai tasrihiyya bor. Istiorai tasrihiyya – istiorada mushabbah bihning lafzi keltirilsa, istiorai tasrihiyya deyiladi. Istiorai tasrihiyya mushabbah bihning mushabbah uchun istiora qilingan lafzidir.<sup>16</sup>

الْمَجَاهِلِ va الْمَعَاطِشِ bu kalimalarda hayotning qiyinchiliklari va noma'lum vaziyatlardan istiora qilinyapti. الْبَيْدِ kalimasida hayotdan, بَيْضَةُ الْهَاجِرَةِ birikmasidan esa hayotdagi qiyinchiliklardan istiora qilinyapti. زُرْقُ الْمَنَاهِلِ birikmasida hayotdagi ne'matlatdan istiora qilinyapti. الْمَحَجَّةُ الْبَيْضَاءُ birikmasida insonlarning hayotdagi maqsadlaridan istiora qilinyapti. الْبُرْدَيْنِ kalimasi esa hayotdagi yoqimli, huzurli, rohatli vaqtlardan istiora qilinyapti.

5. Majoz san'ati. Majoz – lafz qo'llanishi davomida ma'nosi o'zgaradigan bo'lsa, uni majoz deyiladi. Majoz “o'tib ketish” ma'nosida bo'lib, so'zning ko'chma ma'noda ishlatilishini bildiradi.<sup>17</sup>

Zamaxshariyning maqomalarida majozni mursal ham majozni isnodiy ham ishlatilgan.

يَا أَبَا الْقَاسِمِ قَدْ رَأَيْتَ الْعَصْرَيْنِ كَيْفَ يَفْرِضَانِ الْأَعْمَارَ وَيَهْدِمَانِ الْعِمَارَةَ وَالْعَمَّارَ وَيُسْكِنَانِ الدِّيَارَ غَيْرَ  
بُنَاتِهَا<sup>18</sup>

Ma'nosi: “Ey Abul Qosim kecha va kunduz insonlarning hayotiga qanday yakun yasaganiga, buyuk binolarni va ularni obod qiluvchilarni qanday qilib yengganini, diyorlarda quruvchilarisiz o'rnashib olganini ko'rding”.

Bu jummalarda majozni isnodiy bor, ya'ni bu ishlarni zamon qilmaydi balki Alloh taolo qiladi, lekin bu yerda kecha va kunduzning qilganlarini ko'rding deyilyapti.

الْعَصْرَيْنِ bu kalimaning lug'aviy ma'nosi ikki asr degani, lekin majoz qilinib, bu yerda kecha va kunduz ma'nosida ishlatilyapti, ya'ni kuldandun juz maqsad qilinyapti.

<sup>15</sup> O'sha asar. – B. 183.

<sup>16</sup> O'sha asar. – B. 154.

<sup>17</sup> Zokirjon Sharipov. Balog'at fani: Bayon va Bade' ilmlari – Toshkent: “Movarounnahr”, 2014. – B. 134.

<sup>18</sup> Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy. “Maqomot az-Zamaxshariy”. Dor al-kutub al-Misriyya. 1076 h. – B. 46.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Zamaxshariyning bu maqomalari Zamaxshariy ham islomiy ham adabiy bilimlarga boy ekanligini bildiradi.

Zamaxshariyning maqomalari Hamazoniy va Haririyning maqomalaridan shaklda hech qanday farqi qilmaydi. Maqomalarning ichidagi mavzulari jihatidan esa Zamaxshariy maqomalarining manbasi Qur'oni karim, hadisi shariflar, arablarning she'rlari, o'zining she'rlaridan iborat. Bu maqomalarning adabiy jihatiga keladigan bo'lsak, boshqalardan hech ham kam emas. Boshqalarning maqomalarida istiora, majoz, tashbeh, saj' kabi adabiy san'atlar o'tgan bo'lsa, Zamaxshariyning ham maqomalarida bu san'atlar o'tgan. Zamaxshariy maqomalarini yozishda, adabiy san'atlardan foydalanishda oddiy, sodda, ko'p ishlatiladigan so'zlardan foydalangani ham boshqalarning maqomalaridan ustunligini bildiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Z. Islomov. Mustaqillikda ko'z ochgan meros. Tiu.uz. 2017.
2. Zokirjon Sharipov. Balog'at fani: Bayon va Bade' ilmlari – Toshkent: “Movarounnahr”, 2014.
3. Haririy maqomalari: monografiya / Murtazo Saydumarov. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020.
4. Mahmud Zamaxshariy .Tafsir al-Kashshof. 1-jild Jomi al- Qohira. 2007.
5. U. Uvatov. Mahmud Zamaxshariy. “O'zbekiston” 2011.
6. Sh.Mirziyatov. “Muqaddimatu-l-adab” asarida tilshunoslik, lug'atshunoslik an'analari va arabiy-turkiy so'zlikning leksik-semantik talqini. Toshkent – 2017.
7. Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy. “Maqomot az-Zamaxshariy”. Dor al-kutub al-Misriyya. 1076 h.
8. Mahmud Zamaxshariy. Al-mufassal fiy ulumul-arabiyya. Birinchi nashr.Bayrut 1999.

### INTERNET MANBALAR

1. <https://arboblar.uz>
2. <http://xorazmiy.uz>
3. <http://www.alberuniy.uz>
4. <https://www.openscience.uz>